



THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF DIGITAL IDENTIFICATION SYSTEMS AS OBJECTS OF VIRTUAL SPACE

Norqulov Akbar Uroqovich

Head of Department,

Tashkent State Law University PhD

akbarnorqulov92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332580>

ARTICLE INFO

Received: 25th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Digital law, virtual space, object, identification.

ABSTRACT

This article comprehensively studies the virtual space, the basis of its emergence, development and interrelationships with social networks, which is becoming increasingly relevant today. The legal regulatory framework in virtual space, its legal features and legal nature, and the opinions of scientists about virtual space are scientifically analyzed. Special emphasis is placed on various relationships in virtual space, new objects in the digital world, relationships related to them, their concept, essence and significance, and digital identification, which is considered a new object of social relations in virtual space. The article reflects the aspects of digital identification related to the virtual world, virtual space in general, the opinions and scientific views of scientists on this issue, and recommendations. Also, the aspects of digital identification related to virtual space and the limits and methods of their legal use are scientifically analyzed. Statistical materials conducted by scientists in this regard are also cited. The protection of intangible assets in virtual space, the procedure, types, and methods are highlighted. At the same time, the fact that digital identification is the result of intellectual activity, is considered an object of intellectual property, and the scientific definitions given by prominent scientists as their basis are analyzed. In addition, the fact that digital identification is considered an object of intellectual property is studied on the basis of international and national norms. The need to create a mechanism aimed at directly regulating digital identification in virtual space as an object of intellectual property and to further develop digital law in this regard is put forward.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМ ЦИФРОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ КАК ОБЪЕКТОВ ВИРТУАЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА

Норкулов Акбар Уракович

Ташкентский государственный юридический университет

Заведующий отдела, Phd



ARTICLE INFO

Received: 25th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Цифровые права,
виртуальное
пространство, объект,
идентификация.

ABSTRACT

В статье подробно рассматривается все более актуальное виртуальное пространство, его возникновение, основы развития и его связь с социальными сетями. Научно проанализированы правовые основы регулирования виртуального пространства, его правовые характеристики и правовая природа, мнения ученых о виртуальном пространстве. Особое внимание уделяется различным отношениям в виртуальном пространстве, новым объектам в цифровом мире, отношениям, связанным с ними, их понятию, сущности и значению, а также цифровой идентичности, которая рассматривается как новый объект социальных отношений в виртуальном пространстве. В статье отражены аспекты цифровой идентичности, связанные с виртуальным миром, виртуальным пространством в целом, а также мнения, научные взгляды и рекомендации ученых по этому поводу. Также был проведен научный анализ аспектов цифровой идентичности, связанных с виртуальным пространством, а также пределов и способов их законного использования. Приведены также статистические материалы, проведенные учеными по этому поводу. Разъясняются порядок, виды и методы защиты нематериальных активов в виртуальном пространстве. При этом были проанализированы научные определения, данные видными учеными как обоснование того, что цифровая идентификация является результатом интеллектуальной деятельности и считается объектом интеллектуальной собственности. Кроме того, рассмотрение цифровой идентичности как объекта интеллектуальной собственности было изучено на основе международных и национальных норм. Высказаны идеи о необходимости создания механизма, направленного на прямое регулирование цифровой идентичности в виртуальном пространстве как объекта интеллектуальной собственности, и дальнейшего развития цифрового права в этом направлении.



**RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA TIZIMLARINING VIRTUAL MAKONNING
OBYEKTI SIFATIDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI**

Norqulov Akbar Uroqovich

Toshkent davlat yuridik univerversiteti

bo'lim boshlig'i, PhD

akbarnorqulov92@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15332580>

ARTICLE INFO

Received: 25th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Raqamli huquq, virtual
makon, obyekt,
identifikatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarbligi kundan kunga oshib borayotgan virtual makon, uning paydo bo'lishi, taraqqiyot etish asoslari va ijtimoiy tarmoqlar bilan o'zaro bog'liq jihatlari atroflicha o'rganib chiqilgan. Virtual makondagi huquqiy tartibga solish tartib asoslari, uning huquqiy belgilari hamda huquqiy tabiati, virtual makon haqida olimlarning fikr-mulohazalari asosida ilmiy tahlil qilingan. Virtual makondagi turli munosabatlar, raqamli olamidagi yangi obyektlar, ular bilan bog'liq munosabatlar, ularning tushunchasi, mazmun mohiyati hamda ahamiyati, virtual makondagi ijtimoiy munosabatlarning yangi obektlari hisoblanmish raqamli identifikatsiyaga alohida urg'u berilgan. Raqamli identifikatsiyaning virtual dunyo, umuman virtual makon bilan bog'liq jihatlari, bu borada olimlarning keltirgan fikr va ilmiy qarashlari, tavsiyalari maqolada o'z aksini topgan. Shuningdek, raqamli identifikatsiyaning virtual makon bilan bog'liq jihatlari va ulardan qonuniy foydalanish chegaralari va usullari ilmiy tahlil qilingan. Bu borada olimlar tomonidan o'tkazilgan statistik materiallar ham keltirib o'tilgan. Virtual makonda nomoddiy ne'matlarning himoya qilinishi, tartibi va turlari, usullari yoritib berilgan. Shu bilan bir qatorda, raqamli identifikatsiyaning intellektual faoliyat natijasi ekanligi, intellektual mulk obyekti hisoblanishi, ularning asosi sifatida yetuk olimlar tomonidan berilgan ilmiy ta'riflari tahlil qilib o'tilgan. Bundan tashqari, raqamli identifikatsiyaning intellektual mulk obyekti hisoblanishi xalqaro va milliy normalar asosida o'rganib chiqilgan. Virtual makonda raqamli identifikatsiyaning intellektual mulk obyekti sifatida bevosita tartibga solishga qaratilgan mexanizmni yaratish hamda bu borada raqamli huquqning yanada rivojlantirish kerakligi haqida fikrlar ilgari surilgan.

Kirish qismi.



Axborot texnologiyalarning rivojlanishi virtual makonda yangi ko'rinisdagi obyektlarning yuzaga kelishini taqoza etmoqda. Raqamli identifikatsiya ham virtual makonning hozirgi vaqtda foydalanuvchilar tomonidan foydalanadigan obyektlar sirasiga aylanib bo'ldi.

Bu esa o'z navbatida ilm-fan taraqqiyotining rivojlanib borishi bilan insoniyat oldida raqamli identifikatsiyani obyekt sifatida o'rganish hamda ularning huquqiy tartibga solish tabiatini ochib berish asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Raqamli identifikatsiyadan foydalanish nuqtasini belgilashni aniqlashning imkoniyati mavjud bo'lmaganligini inobatga olib ulardan tegishli tartibda turli soxalarda foydalanish mumkin.

O'rganilgan tatqiqotlardan aniqlash mumkinki, hozirgi vaqtda virtual makondagi raqamli identifikatsiyadan biznes, shartnoma masalalari, mehnat munosabatlari, marketing va boshqa sohalarda keng foydalanib kelinmoqda.

Insoniyat yashayotgan real hayot singari virtual makon, metamakon deya ta'riflanadigan raqamli dunyoni tadqiq etish va undagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish bugungi kun huquqshunoslari uchun asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Virtual makon tasavvurini ochib berish uchun Dj.Urrining keltirgan fikrini keltirib o'tish mumkin. Muallifning fikricha butun insoniyat 3 xil mezon asosida o'zviy namayon bo'ladi. Bular a) tabiiy obyektlar b) sun'iy obyektlar g) virtual obyektlar[1].

B. Anosonov esa bungan boshqacharo yondashadi. Uning taklifiga ko'ra virtual makon bu axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan maxsus makon hisoblanadi[2].

G.Akopov esa virtual makonga o'z ta'rifini quyidagicha bayon qiladi. Muallifning talqiniga asosan virtual makon insonlar tomonidan maxsus texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan barcha harakatlarni amalga oshiriladigan joy hisoblanadi[3].

Keltirilgan firklardan anglash mumkinki, virtual makon ham insoniyatning tafakkuri asosida yaratiladigan, ma'lum bir munosabatlarni amalga oshirishga ixtisoslashgan maxsus joy sifatida tushunish mumkin.

Raqamli identifikatsiya tahlili

Raqamli identifikatsiya – bu virtual makonda foydalanuvchilar va obyektlarni aniqlash, tasdiqlash va farqlash imkonini beruvchi texnologik yechimdir. Zamonaviy raqamli dunyoda identifikatsiya vositalari faqatgina shaxsni aniqlash bilan chegaralanmay, balki kengroq ma'noda qo'llanilmoqda.

Raqamli identifikatsiya texnologiyalari orasida biometrik ma'lumotlar (barmoq izi, yuz tanish, ko'z qorachig'i skanerlash), raqamli imzo, blokcheyn asosidagi identifikatsiya tizimlari, to'rttomonli autentifikatsiya va boshqa ko'plab yechimlar mavjud. Bu texnologiyalar nafaqat xavfsizlikni ta'minlash, balki foydalanuvchi tajribasini yaxshilash, turli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Raqamli identifikatsiyaning ahamiyati nafaqat texnik sohada, balki huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlardan ham oshib bormoqda. Virtual makondagi operatsiyalarning qonuniyligi, foydalanuvchi shaxsini aniqlash, virtual aktivlarga egalik huquqini tasdiqlash kabi masalalarda raqamli identifikatsiyaning roli beqiyosdir.

Material va metodlar.



Virtual makon sohasida tatqiqotni amalga oshirish davomida tatqiq etilgan soha sifatida virtual makon, virtual makonda munosabatlar, obyektlar va ular bilan huquqiy tomonlari o'rganildi.

Ilmiy tatqiqot ishda tahlil qilish, tarixiy holatlarni xalqaro munosabatlar asosida taqqoslash, ilmiy asoslantirish va isbotlash, tizimli-mantiqiylik, qiyosiy huquqiy, ilmiy manbalarni kompleks tatqiq etish, induksiya va deduksiya usullari tahlil qilingan.

Tatqiqot natijalari.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarning rivojlanib borishi internet olamida yangi obyektlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Virtual makonning yangi obyektlari sifatida raqamli identifikatsiyani keltirib o'tishimiz mumkin.

Raqamli identifikatsiya turli shakllarda namoyon bo'ladi. Bu biometrik ma'lumotlar orqali identifikatsiyalash, elektron imzo, virtual ID kartalari, blokcheyn texnologiyasidagi identifikatsiya tizimlari, token-asosidagi autentifikatsiya va boshqalar. Har bir raqamli identifikatsiya usuli o'zining xususiyatlari, afzalliklari va cheklovlariga ega.

Bugungi kunda raqamli identifikatsiya tizimlari tobora takomillashib bormoqda. Zamonaviy identifikatsiya tizimlari nafaqat foydalanuvchi kirishini ta'minlash, balki uning harakatlarini tahlil qilish, xavfsizlik darajasini aniqlash, muayyan xizmatlarga ruxsat berish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Bundan tashqari, raqamli identifikatsiya tizimlarining virtual makonda tobora globallashib borayotganligi ham ayni haqiqat bo'lib ulgurdi. Bugungi kunda virtual makondagi munosabatlarning deyarli barchasi u yoki bu ko'rinishdagi raqamli identifikatsiyaga asoslangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli identifikatsiya bu virtual dunyoda foydalaniladigan, unda ma'lum bir funktsiyalarni bajaradigan virtual makonning obyekti hisoblanadi.

Raqamli identifikatsiyaning virtual makondagi obyekt sifatidagi roli ham yildan yilga oshib bormoqda. Hozirgi vaqtda raqamli identifikatsiya tizimlari marketing, biznes sohalari, shartnomaviy munosabatlar, jinoyat, mehnat kabi soxalarda keng qo'llanib kelinmoqda. Ahamiyatli tomoni mazkur soxalar doirasi kengayib bormoqda va bularning barchani virtual makon deb atalmish raqamli dunyoda sodir bo'lmoqda.

Raqamli identifikatsiyaning virtual makonda tutgan o'rni, uning huquqiy tabiati, intellektual mulk obyekti ekanligi, undan foydalanish chegaralari va buzilishi oqibatlari to'g'risidagi masalalar bugungi kunda huquqiy tartibga solishning muhim jihatlari hisoblanadi.

Xulosa.

Yuqorida keltirilgan holatlardan shuni xulosa qilish mumkinki, virtual makonning yildan yilga rivojlanib borishi o'z o'zidan yangi obyektlarni yuzaga kelishiga zamin yaratib kelmoqda.

Virtual makonning yangi obyekti sifatida raqamli identifikatsiyani keltirib o'tishimiz va raqamli identifikatsiya bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy jihatdan ta'minlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblandi.

Bildirilgan fikrlardan aniqlash qiyinmaski, virtual makonda raqamli identifikatsiya hamda ulardan foydalanish tartibi hali yetarli darajada huquqiy ta'minlab berilmagan. Bu esa o'z navbatida bugungi kun huquqshunoslarining asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.



Ahamiyatli tomoni raqamli identifikatsiya marketing, shartnomaviy munosabatlar, tadbirkorlik faoliyati hattoki ayrim davlatlarda sud amaliyotida ham foydalanib kelinmoqda. Bu esa o'z o'zidan raqamli identifikatsiyadan foydalanish chegaralarini belgilash hamda ulardan foydalanish tartibi, foydalanishni huquqiy tartibga solish hamda foydalanishni buzganlik uchun huquqiy javobgarlikni belgilash kundan kunga ahamiyatli bo'lib bormoqda.

References:

1. Jon Urriy. "Mobilnisti.M manitoring obshestvenniye mneniya" (John Urry, Mobility. M., Monitoring of public opinion. N5(11) 2012/.
2. Anosova V. Pravovaya oxrana internet-saytov// Avtorskiy prava i смеjnyy prava (Legal protection of Internet sites// Copyright and related rights/2013).
3. Akopov G. Internet i politika. Madirnezatsiya paliticheskiy sistemi na asnove innavatsionnix paliticheskix internet-kommunikatsi. (Internet and politics. Modernization of the political system based on innovative political Internet communications) Monograph.Moscow: KNORUS.2017.